



AMIR TEMUR SALTANATI DAVRIDA SAN'ATGA E'TIBOR

Shahrisabz davlat muzey-qo'riqxonasi rassom- ta'mirchi

Buxorova Marjona

Anotatsiya: *Maqola mazmuni, Buyuk Sohibqiron Amir Temurning ilm-fan homiysi, san'at va madaniyat ravnaqiga poydevor bo'lanlgi hamda bunyodkorlik ishlari bilan tarixda o'chmas iz qoldirgan obidalar va g'oyalardan iborat.*

Аннотация: *В статье рассматривается, в какой степени наш дед Амир Тимур был бескорыстным правителем страны, выдвигал созидательные идеи, закладывал основы развития науки, искусства и культуры, покровительствовал представителям искусства и науки и оставил неизгладимый след в истории как правитель империи и как деятель своего творчества.*

Abstract: *The article examines the extent to which our grandfather Amir Timur was a selfless ruler of the country, put forward creative ideas, laid the foundations for the development of science, art and culture, patronized representatives of art and science and left an indelible mark on history as the ruler of the empire and as a figure of his creativity.*

ASOSIY QISM

XV asr boshlarida Movarounnahr hududida qudratli davlat barpo etgan Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda va davlat arbobi, balki san'at va madaniyat homiysi sifatida ham tarixda muhim o'rin egallaydi. Uning davrida san'at davlat siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylangan. XIV-asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr Yaqin va O'rta Sharqning tijorat, iqtisod va madaniyat markaziga aylanib bordi. Chingizxon qo'shinlari tomonidan tag-tubigacha vayron qilingan Samarqand, Kesh, Buxoro, Termiz, Toshkent, Marv, Hirot kabi va boshqa qadimiy shaharlar obod bo'la boshladi. Masjidu madrasalar, maqbaralar, karvonsaroylar va hammomlar qurildi. Ulkan va bepoyon mamlakatning poytaxti rutbasini olgan Samarqand, Amir Temurning niyatiga ko'ra, kurrayi zamindagi eng chiroyli shaharga aylanishi kerak edi. Samarqand O'rta Sharq va Markaziy Osiyoning eng yaxshi me'morlari to'plangan shaharga aylandi. Me'mor va bunyodkor ustalarning bahamjihat sa'y-harakatlari tufayli jahon me'morchiligida yangi yo'nalish paydo bo'ldi va u ijodning go'zal namunalarini in'om etdi¹⁷.

¹⁷ Ziyouz.comsayti



San'at ahliga e'tibor: Amir Temur turli mamlakatlardan mashhur me'morlar, ustalar, naqqoshlar va xattotlarni Samarqandga taklif qilgan. San'atkorlar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan va ularga munosib sharoitlar yaratilgan. Bu holat san'atning tez rivojlanishiga zamin yaratgan. Amir Temur davrida me'morchilik, naqqoshlik, miniatura, kulolchilik, yog'och o'ymakorlik, zardo'zlik, kashtachilik san'ati yuksak darajada rivojlandi. Samarqand poytaxt etib tanlanib, u yirik madaniy markazga aylantirildi. Ulug' amir sud majlislari, hukumat tizimini qayta tashkil etish va elatlari vakillarining eng yirik qurultoyini o'tkazishga tayyorgarlik bilan bir qatorda sevimli mashg'uloti – yangi imoratlar va bog'lar barpo ettirib, poytaxtning chiriyoiga chiroy qo'shishni ham unutgani yo'q. Sohibqiron amri bilan qo'shin bir kechayu bir kunduz ichida Samarqandning eng katta ko'chasini buzib kengaytirdi, uning atrofidagi uylar va do'konlar ham qaytadan qurildi¹⁸. Bu davrda Bibi-Xonim masjidi, Shohi Zinda majmuasi, Go'ri Amir maqbarasi, Shahrisabzdagi Oqsaroy kabi ulkan me'moriy obidalar bunyod etildi. Ushbu inshootlar koshinkorlik, muqarnas, rang-barang naqshlar va yozuvlar bilan bezatildi. Amir Temur bunyod ettirayotgan Jome masjidi qurilish maydoniga tez-tez tashrif buyurar, fidokorona mehnat qilayotgan hunarmandlarga kumush tangalar va yemak tutqazib, uzoqni ko'ra bilmaydigan me'morlarni jazolardi. Damashqdan kelgan me'mor va hunarmandlar uning amri bilanshaharning shimolida joylashgan Bog'i Shamolda ajoyib bir qasr bunyod qildirilgankim, solnomalada yozilishicha bog' Sohibqiron qurdirgan imoratlarning eng nafisi bo'lgan. Eronlik va Iroqlik kulollar saroyning tashqi devorlarini nafis Kushon sopollari bilan bezadilar. Bu ulug'vor saroy, afsuski, bizgacha yetib kelmagan, biroq jome masjidining ulkan devorlari hamda asrlar davomida zarracha ham ziyon yetmagan Go'ri Amir maqbarasi Amir Temur qurdirgan binolarning nihoyatda go'zal bo'lganligidan dalolat beradi¹⁹. Amir Temur Ko'ragon butun dunyoga faqat o'zining harbiy san'atinigina emas, balki g'oyat betakror me'morchilik yodgorliklarini ham meros qoldirgan. Har bir zafarli yurishidan so'ng u albatta, biror-bir me'moriy obida bunyod ettirgan, vayron qilgan shaharlarini qayta tiklashga harakat qilgan (Bag'dod, Darband, Baylakon shaharlari shular jumlasidandir). Go'zal me'moriy inshootlar ham saltanatning dovrug'ini dunyoga yoyadigan omillardan hisoblangan. Shuning uchun ham Amir Temur "Agar kimda-kim bizning qudratimizga shubxa qilsa, biz qurgan binolarga boqsin" degan iborani ishlatgan. Temuriylar saltanatidagi me'moriy obidalar ichida eng ajralib turadiganlari bu "Amir Temur bog'lari" hisoblangan. Samarqand bog'lari

¹⁸ Люсен Керен. Амир Темур Салтанати. «Зукко китобхон». Тошкент – 2024 В-197

¹⁹ Люсен Керен. Амир Темур Салтанати. «Зукко китобхон». Тошкент – 2024 В-197



haqida chet ellik tarixchilar quyidagi fikrlarni bildirib o'tishgan: "Jahon tarixida bog' yaratish san'ati bo'yicha Ahamoniylar sulolasidan so'ng, Sosoniylar sulolasi ham o'ziga xos usullarni joriy etgan, ammo bog' yaratish san'atining oltin na'munalarini faqat Samarqand bog'lari misolida ko'rishimiz mumkin"²⁰

Temur saltanatida amaliy san'at turlari ham rivoj topdi. Naqqoshlik, zargarlik, kulolchilik, to'qimachilik va yog'och o'ymakorligi keng tarqaldi. Binolarning ichki va tashqi bezaklarida murakkab geometrik va islmiy naqshlar qo'llanilgan. Bu san'at turlari xalq didi va estetik qarashlarining yuksalishiga xizmat qilgan.

Insoniyat tarixida barcha jabhada adolatni ustun bilgan hukmdorlar tarixiga qiziqish hamisha katta bo'lgan. Ana shunday zotlardan biri – buyuk bunyodkor, ilmfan homiysi, yuksak vatanparvar, o'zi barpo etgan ulug' saltanatni "Temur tuzuklari" dek odilona qonunlari bilan mustahkamlagan shavkatli hukmdor, yengilmas sarkarda Amir Temurdir²¹. Madaniyatlar uyg'unligi: Temur saltanati keng hududlarni o'z ichiga olgan sababli, turli xalqlarning san'ati bir-biri bilan uyg'unlashdi. Eron, Hindiston, Ozarbayjon va boshqa hududlarning san'at an'analari Movarounnahr madaniyati bilan qo'shib, Temuriylar davriga xos noyob san'at uslubi shakllandi. Amir Temur saltanatida san'atga bo'lgan e'tibor davlat qudratini namoyon etish va xalq madaniyatini yuksaltirishga xizmat qildi. Uning homiyligi tufayli me'morchilik va amaliy san'at yuksak darajaga ko'tarilib, Temuriylar davri Sharq madaniyati tarixida muhim o'rin egalladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ziyouz.com sayti
2. Люсен Керен. Амир Темур Салтанати. «Зукко китобхон». Тошкент – 2024 B-197
3. Люсен Керен. Амир Темур Салтанати. «Зукко китобхон». Тошкент – 2024 B-197
4. Hilda Hukhem, "Yetti iqlim sultoni", Adolat nashriyoti. Toshkent – 1999, 56-bet

²⁰ Hilda Hukhem, "Yetti iqlim sultoni", Adolat nashriyoti. Toshkent – 1999, 56-bet

²¹ . Amir Temur chet elliklar nigohida", G'afur G'ulom nashriyoti. Toshkent – 2016, 11-bet